



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOULLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Ortiqov Sidiqjon
Xolmurodovich**

*"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
Muammoli aktivlar bilan ishlash va undirish
departamenti Qarzdorlikni sud va boshqa organlar
orgali undirish boshqarmasi menejeri*

Hozirgi kunda banklarning investitsion faolligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sishga xizmat qilmoqda. Shu bois, investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish banklarning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank tizimi uchun moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish, qonunchilik bazasini mustahkamlash va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardandir. Ayniqsa, tijorat banklari uchun investitsion mahsulotlar va xizmatlarni kengaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish muhimdir.

Shu bois tijorat banklarining investitsion faoliyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinalarini yaratishga hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining investitsion faolligini kuchaytirish borasidagi harakatlar yanada kengaytirilishi zarur hisoblanadi.

o'sish strategiyalari

agressiv o'sish strategiyalari

konservativ o'sish strategiyalari

daromad strategiyalari

o'rtacha o'sish strategiyalari

o'sish va daromad strategiyalari

1-rasm. Tijorat banklarining portfelini boshqarishda qo'llaniladigan strategiyalar [1]

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish nafaqat bir qator ko'rsatkichlaridan balki, umumiyligi portfel borasida, portfel uchun investitsiyaning aniq moliyaviy dastaklarini tanlash vaqtida ham qo'llanishi mumkin. Bundan tashqari, jahondagi ko'pchilik davlatlarning tartibga soluvchi organlari banklarga o'z investitsiya siyosatini yozma ravishdagi hujjatda ifodalashni tavsiya etib, unda quyidagi jihatlar ajratiladi:

- 1) bank qabul qilishni mo'ljallagan qimmatli qog'ozni o'z vaqtida so'ndirmaslik riski;
- 2) so'ndirilishiga qadar qimmatli qog'ozlar aylanishining rejadagi muddatlari, shuningdek, barcha sotib olingan qimmatli qog'ozlarning likvidlik darajasi;
- 3) bank o'zining investitsiya portfeli yordamida erishmoqchi bo'lgan maqsadi;
- 4) bank yordamida riskni pasaytirishni mo'ljallayotgan investitsiya portfelining diversifikatsiyasi [2].

Bank faoliyatini boshqarish portfelida uning rahbariyati quyidagi investitsiya strategiyalarini doimiy ravishda maqbullashtiradi:

- 1) o'sish strategiyalari kurs bo'yicha qiymati o'sib boruvchi kompaniya aksiyalaridan shakllanadi. Strategiyalarni mazkur turining maqsadi – nisbatan yuqori dividendlar olish bilan birga, qimmatli qog'ozlar portfeli kapital qiymatining o'sishiga erishishdir. Biroq dividend to'lovlar kichik miqdorda amalga oshiriladi;
- 2) agressiv o'sish strategiyalari bank jamg'armasining maksimal ravishda qo'shimcha o'sishiga mo'ljallangan. Ularning tarkibiga yosh, tez o'sayotgan kompaniyalar aksiyadorlik strategiyalari kiradi. Shu kompaniyalar kabi bank portfelidagi investitsiyalar ham yetarli darajada riskga egadir, lekin u bir vaqtning o'zida eng yuqori daromadni keltirishi bilan ajralib turadi;
- 3) konservativ o'sish strategiyalari eng kam riskli hisoblanadi. Ularga asosan kurs qiymati o'sish sur'atlari yuqori bo'lmadasa, barqarorligi bilan ta'riflanadigan yirik, yaxshi tanilgan kompaniyalar aksiyadorlik strategiyalaridan iborat. Bunda bank portfeli tarkibi uzoq vaqt davomida barqaror bo'lib qoladi. Konservativ o'sish investitsiya strategiyalari jamg'armani saqlab qolishga mo'ljallangan;
- 4) o'rtacha o'sish strategiyalari agressiv va konservativ o'sishning moliyaviy instrumentlari, investitsiya xususiyatlarining uyg'unlashuvidan iboratdir. Strategiyaning mazkur turini amalga oshirishda uzoq muddatga sotib olinadigan ishonchli qimmatli qog'ozlar bilan birga tarkibi muntazam yangilanadigan riskli fond dastaklari qo'llanadi. Bunda jamg'armaning o'rtacha o'sishi va qo'yilmalarni mo'tadil risk darajasi kafolatlanadi. Ishonchlilik konservativ o'sishning qimmatli qog'ozlari bilan, daromadlilik esa - agressiv o'sishning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlanadi. O'rtacha o'sish strategiyalari qimmatli qog'ozlar portfelining eng keng tarqalgan modeli hisoblanib, yuqori riskka intilmagan banklarda qo'llanadi;
- 5) daromad strategiyalari foizlar va dividend to'lovlarini hisobiga yuqori daromad olish uchun mo'ljallangan. Daromadlar asosan kurs qiymati o'sishi mo'tadil

va dividendlari yuqori bo‘lgan aksiyalardan, investitsiya xususiyati joriy to‘lovlari yuqoriligidan iborat obligatsiyalar hamda boshqa qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlardan shakllanadi. Strategiyalar mazkur turining xususiyati shundaki, ularning maqsadi – konservativ investorlar uchun maqbul bo‘lgan riskning minimal darajasiga teng bo‘lgan daromadning minimal darajasini olishdir. Shuning uchun mazkur strategiyaning ob‘ektlari barqaror to‘lanadigan foiz va kurs qiymatining yuqori nisbatiga ega fond bozorining yuksak ishonchli dastaklardir;

6) o‘sish va daromad strategiyalari banklarning fond bozoridagi kurs qiymatining pasayishidan hamad, dividend va foiz to‘lovlari pastligidan ehtimolli yo‘qotishlarini oldini olish maqsadida shakllantiriladi.

Tijorat banklarni investitsiya faoliyatining mohiyati aynan aktivlarning turli guruhlari o‘rtasida investitsiya salohiyatni samarali taqsimlanishini ko‘zda tutadi. Biror bir portfeli shakllantirish vaqtida dastlab qanday maqsad va vazifalar turganiga ko‘ra, investorning portfeli tashkil qiladigan aktivlarni har xil turlari o‘rtasida ma’lum bir nisbat tanlab olinadi. Bank menejerining asosiy vazifasi – investorning ehtiyojlarini to‘g‘ri hisobga olish va aktivlar portfeli shakllantirishdir [3].

Portfelli investitsiya tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatining yakuniy natijalarini rejalashtirish, baholash va nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi [4]. U aksiyalar, turli darajadagi risk va kafolatlangan obligatsiyalar, shuningdek, davlat tomonidan kafolatlangan, qat’iy daromadli qimmatli qog‘ozlarni o‘z ichiga oladi. Nazariy jihatdan portfel faqat bir turdagи qimmatli qog‘ozlardan iborat bo‘lishi yoki turli qimmatli qog‘ozlarni o‘zarо almashtirish orqali tarkibini o‘zgartirishi mumkin. Har bir alohida qimmatli qog‘oz esa bunday samarali natijaga erisha olmaydi. Portfelli investitsiyaning asosiy maqsadi investitsiya sharoitlarini yaxshilash, ya’ni qimmatli qog‘ozlar majmuiga individual xos bo‘lмаган yangi xususiyatlar berish orqali investor uchun minimal risk bilan barqaror daromad olish imkonini yaratishdir. Shu sababli, qimmatli qog‘ozlar portfeli investor uchun risklarni kamaytiruvchi va daromadni ta’minlovchi ishonchli poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Witbooi P. J., van Schalkwyk G. J., Muller G. E. An optimal investment strategy in bank management //Mathematical Methods in the Applied Sciences. – 2011. – Т. 34. – №. 13. – Р. 1606-1617.
2. Liaw K. T. The business of investment banking: A comprehensive overview. – 2011.
3. Choudhry M., Landuyt G. The future of finance: a new model for banking and investment. – John Wiley & Sons, 2010.
4. Courchane M., Nickerson D., Sullivan R. Investment in internet banking as a real option: theory and tests //Journal of Multinational Financial Management. – 2002. – Т. 12. – №. 4-5. – Р. 347-363.